

JIZZAX VILOYATI G'ALLAOROL TUMANINING AYRIM HUDUDLARIDA GELMINTOZLARNI TARQALISHI

*J.M.Isayev-katta ilmiy xodim
I.A.Ulashov-katta ilmiy xodim
I.G'.Usmanov-kichik ilmiy xodim
U.I.Muxtorov-tayanch doktorant
Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti*

Annotatsiya Ushbu maqolada Jizzax viloyati G'allaorol tumanidagi ayrim xo'jaliklarida gelmintlarni tarqalish darajasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *Gulchambar, Sovruk, gelmint, gelmintoz, boshqa oshqozon-ichak strongilyatozlar, moniezioz, marshallagioz, gelmintoovoskopiya, fyulleborn ketma-ket yuvish.*

Kirish. Respublikamizda chorvachilik sohasining asosiy tarmoqlaridan biri bu qo'ychilik bo'lib, aholini sifatli go'sht, sut hamda yog' mahsulotlari bilan, sanoatni esa xom-ashyo sifatida teri mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda chorva mollari bosh sonini ko'paytirish, ularni mahsuldorligini oshirish, turli yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklarga qarshi kurashish va oldini olish choralari rejali ravishda olib borishdir. Bu sohani rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi qator omillar ham mavjud. Bulardan qishloq xo'jalik hayvonlari orasida uchrab turadigan ayrim gelmintozlarning tarqalishi va keltiradigan iqtisodiy zarari bo'yicha muhim o'rin egallaydi. Respublikamizda ushbu kasalliklarni tarqalishini, epizootologik holatini va ularga qarshi kurashish choralari izlab topishni talab etadi. Chorvachilikni yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, mahsuldor mollar tuyoq sonini ko'paytirish va ularning mahsuldorligini oshirishda chorva mollari turli yuqumli, parazitlar va yuqumsiz kasalliklariga qarshi davolash-profilaktika chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish muham ahamiyatga ega.

Jumladan mahsuldor mollar orasida uchraydigan turli xil gelmintozlar, ularning tarqalish darajasi, hozirgi chorvachilik yuritish texnologiyasi sharoitida turli xil gel'mintozlarning epizootologik xususiyatlari, bu kasalliklarga qarshi davolash-profilaktika chora-tadbirlarini takomillashtirish va yangi uslub-vositalar ishlab chiqish ma'lum darajadagi muhim va dolzarb muammo bo'lib hisoblanadi.

Ayniqsa mahsuldor mollarning asosiy gelmintozlarining tarqalishi va ular yetkazadigan iqtisodiy zararining oldini olishga yo'naltirilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega muammo bo'lib hisoblanadi. Chunki gelmintozlarning qo'zg'atuvchilari, ya'ni patogen gelmintlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalish darajasi va hayvon organizmida rivojlanishi tashqi muhit va chorvachilik yuritish texnologiyasiga bog'liqdir.

Shuning uchun gel'mintozlarning tarqalishi va epizootologik jihatlari chorvachilik yuritishning yangi texnologiyasi shart-sharoitlarda aniqlash va olingan ma'lumotlar asosida bu kasalliklarga qarshi samarali davolash-profilaktika chora-tadbirlarni ishlab chiqish davr talabi bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Chorva mollari orasida asosiy gelmintozlarni tarqalishini aniqlash, ularga qarshi chora tadbirlarni takomillashtirish, gelmintozlarni davolash va profilaktika chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishning ilmiy asoslari va metodologik jihatlarni tadqiq qilish va amaliyotga qo'llashdan iborat.

Material va metodlar. Ilmiy tadqiqot ishlari Jizzax viloyati G'allaorol tumani ayrim hududlarida tekshirish ishlari olib borildi. Gulchambar mahalla fuqarolar yig'ini hududida 20 bosh qo'ylardan va Sovruk mahalla fuqarolar yig'ini hududida esa 20 bosh qo'ylardan tezak namunalari olinib, tekshiruvdan o'tkazildi.

Tadqiqotlar davomida olingan namunalar veterinariya ilmiy tadqiqot instituti Gelmintologiya laboratoriyasida olib borildi. Gelmintoovoskopik tekshirishlardan fyulleborn va ketma-ket yuvish usullaridan foydalanib tekshirildi.

Natijalar va ularning tahlili. Qo'ylarda tarqalishini o'rganish natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Qo'ylardan olingan tezak namunalarini tekshirish natijalari

Hudud	Hayvon bosh soni	Fulleborn va ketma-ket yuvish usulida tekshirilganda							
		Moniezioz		Marshallagioz		Boshqa oshqozon-ichak strongilyatozlar		Gelmintozlar bilan umumiy zararlanishi	
		n=	%	n=	%	n=	%	n=	%
Gulchambar m.f.y.	20	-	-	7	35	1	5	8	40
Sovruk m.f.y.	20	10	50	-	-	-	-	10	50
Jami:	40	10	25	7	17,5	1	2,5	18	45

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, G'allaorol tumanidagi Gulchambar mahalla fuqarolar yig'ini hududida 20 bosh qo'ylardan olingan tezak namunalari tekshirilganda ularning 7 boshida *marshallagioz* va 1 boshida *boshqa oshqozon-ichak strongilyatozlari* qo'zg'atuvchilarining tuxumlari borligi aniqlandi, va qo'ylarning zararlanish darajasi 40 foizni tashkil etdi.



1-rasm. Qo'ylardan namunalar olish jarayoni

G'allaorol tumanidagi Sovruk mahalla fuqoralar yig'ini hududida 20 bosh qo'ylarning tezak namunalari tekshirilganda 10 boshida *moniezioz* qo'zg'atuvchisining tuxumlari borligi aniqlandi, qo'ylarning Monezioz bilan zararlanish darajasi esa 50 foizni tashkil etdi.

Xulosa. Respublikaning markaziy hududi Jizzax viloyati G'allaorol tumanidagi ayrim hududlardagi qo'ylar turli xil gelmintozlar bilan zararlangan bo'lib, jami 40 bosh qo'ylarning gelmintozlar bilan umumiy zararlanishi 45% ni tashkil qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахмадалиева Л. Х., Элмуродов Б. А., Орипов А. О. ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗДОРОВЬЯ ЖИВОТНЫХ И ЭКОСИСТЕМ В НИИ ВЕТЕРИНАРИИ //ББК 40.0 П78. – 2021. – С. 378..
2. Орипов А. О. и др. К вопросу о химиопрофилактике гельминтозов //Ветеринарна медицина. – 2013. – №. 97. – С. 396-397.
3. Орипов А. О. и др. Препараты против гельминтов овец в виде твердых дисперсий //Успехи современного естествознания. – 2019. – №. 3-2. – С. 169-175.
4. Usmonov I. et al. QORAMOLLARNING ANOPOLOTSEFALYATOZLAR //AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 403-406.
5. Taylakov T. I. et al. MAYDA SHOXLI HAYVONLARNING MONIEZIOZIDA ANTGELMINTIKLARNI SAMARADORLIGI ANIQLASH //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3 SPECIAL. – С. 955-958.
6. Usmanov I. G., Taylakov T. I. DISTRIBUTION OF MONIEZIOSIS AMONG SMALL HORNED ANIMALS IN THE MOUNTAIN RANGES AND MOUNTAIN REGIONS OF SAMARKAND REGION //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 701-704.
7. Якимов К. Д., Ногаева У. В. БИОФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДА ТВЁРДЫХ ДИСПЕРСИЙ В ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ //Молодая фармация-потенциал будущего. – 2022. – С. 938-945.
8. Орипов А. О. и др. Препараты против гельминтов овец в виде твердых дисперсий //Успехи современного естествознания. – 2019. – №. 3-2. – С. 169-175.
9. Халиков С. С. и др. ПОЛУЧЕНИЕ МОДИФИЦИРОВАННЫХ МЕХАНОХИМИЧЕСКИМ ПУТЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ПРЕПАРАТОВ И ИХ СВОЙСТВА //Актуальные проблемы сельского хозяйства горных территорий. – 2019. – С. 324-328.
10. Рузимуродов, М., Маматкулов, И., & Игнатов, П. (2018). Бруцеллёзная искусственная вакцина (бив) для профилактики бруцеллёза животных. *in Library*, 18(2), 145-147.
11. Рузимуродов, М. (2018). Новые инновационные подходы в борьбе с бруцеллёзом. *in Library*, 18(2), 14-16.
12. Рузимуродов, М., Мамадуллаев, Г., Тухлиев, А., & Рахимов, А. (2016). Специфическая активность ППД туберкулинового диагноста. *in Library*, 16(1), 14-15.
13. Рузимуродов, М., Баженов, Л., Артемова, Е., & Тен, Р. (2008). Использование кристаллогенных свойств бруцелл для их идентификации и дифференциации. *in Library*, 3(3), 21-22.
14. Баженов, Л. Г., Рузимуродов, М. А., Артемова, Е. В., & Тен, Р. М. (2008). Изучение и использование кристаллогенных свойств бруцелл для их идентификации и дифференциации. *Bulletin of the International Scientific Surgical Association*, 3(1), 21-22.
15. Рузимуродов, М., & Тен, Р. (2004). Применение средств специфической профилактики в борьбе с заболеваниями сельскохозяйственных животных бруцеллезом в Республике Узбекистан. *in Library*, 1(1), 61-63.